

QIZIQMACHOQ JANRINING BOLALAR FOLKLORIDAGI IFODASI

Qobilova Aziza Ahrorovna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Sherbekova Gavhar Yaxshibayevna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Nuriddinova Mehriniso Fatxiddinovna

BuxMTI akademik litseyi o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada bolalar folklorida qiziqmachoq janri, o'zbek bolalar she'riyatida yumoristik kulgi yaratish an'analari, yumoristik kulgining xususiyatlari hamda nazariy asoslari haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar. *Yumor, kulgi, bolalar adabiyoti, hazil, hajv, yumor, mutoyiba, kinoya, gelotologiya, kulgining chastotasi, professional komediya.*

Bolalar folklorida qiziqmachoq degan janr bor. Bu haqda alohida tadqiqot ham yaratilgan¹. U tushuncha va tasavvurlarning o'zaro qorishuvi tufayli hosil bo'lgan fantastik obrazlilik va voqeabandlik negizida qurilgan, qiziqchilik qo'shiqlari va o'yin naqarotlari matnlari negizida yuzaga kelgan. Biroq bolalargagina yaqin va tushunarli obrazlar orqali shakllangan. Qiziqmachoqlarda obrazlar shaklan, hajman va mohiyatan o'zaro nomutanosiblikda namoyon bo'lishi oqibatida kulgi qo'zg'atilishi ta'kidlanadi. Binobarin, qiziqmachoqlarga xos bunday xususiyatni G'afur G'ulomning yuqoridagi she'rida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Aytish joizki, bunday she'rlarning barchasida bolalarni jon-dilidan sevgan shoir dahosiga xos samimiyat, soddalik, beg'ubor kulgi yarq etib ko'zga tashdanadi. Kichkintoylarning bilimsizligi ham o'quvchining g'ashiga tegmaydi. Aksincha, yosh kitobxon tengqurlari ustidan maza qilib kulish bilan birga, o'zi ham shunday ahvolga tushmaslik uchun hushyor tortadi. Ko'proq kitob o'qishga intiladi. Demak, bu o'rinda yumorning ma'rifiy-estetik ahamiyati ustuvor.

Bu fikrni qisqa umri davomida bolalar uchun samarali ijod qilgan atoqli shoir Sulton Jo'ra she'rlari misolida ham aytish mumkin. Shoirning "Qarzdor" she'ri qahramoni maktabda past baho olib, qarzdor bo'lganidan kechqurun yostiqqa bosh qo'ysa-da, ko'zini yumolmay, o'ylovda qoladi. Yarim tunda tush ko'radi: qayoqqadir ketayotib, qo'qqisdan uning yo'lini birov to'sganidan qo'rqib

¹ Adizova N. Qiziqmachoqlarning janriy tabiatini va badiiyati. ff.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 50 b.

ketadi. Titroq bosib, yaxshiroq qarasa, bu “Arifmetika” fani ekan... Terlab, lol qolgan Qodir undan qutulishni o‘ylaydi. Sezdirmay qo‘lidan qochib qolganida, “Arifmetika” uni quvadi, Qodir esa qochadi. Jonholatda qochaverib, toshga qoqilib, katta chuqurga dumalab tushganida, ko‘zini ochadi va karavotdan yerga yiqilganini anglaydi... Shu tushi bahona, yaxshi o‘qib, do‘satlari yordamida qarzidan qutuladi. Bu yumoristik she’rda shoirning voqelikka nisbatan ijobiy va kulgili munosabati aks etadi. Yuqoridagi nuqsonlar ana shunday kulgili sujet asosida tuzatilishiga xayrixohlik seziladi. Shu ma’noda, L.Bat to‘g‘ri ta’kidlaganidek: “Yumor – bolalarni o‘z qilmishi to‘g‘risida o‘ylab ko‘rishga majbur qiladi”.

Quddus Muhammadiyning “Ahmadjonning kitobxonligi” she’rida kitob o‘qishni yoqtirmaydigan, shunchaki rasmlarini tomosha qilishdan nariga o‘tmasdan, rasmi kam deya bahona qiladigan bolalarning yumoristik obrazi yaratilgan:

Ana, sichqon, mushukvoy,
Ana, xo‘roz, kuchukvoy.
Ana, mug‘ombir tulki,
Pisib turishi kulgi.
Ana, o‘rdak, ana g‘oz,
Ana, maymun, sho‘x dorboz.
Xo‘roz qichqirar: “Qu-qu!
Bunda yo‘lbars, sher yo‘q-ku?”²
deyishi kulgi ostiga olinadi.

Kichik maktab yoshidagi bolalarda uchrab turadigan dangasalik oqibati shu tarzda komik she’r qilingan.

Yumoristik she’rlarning asosi sujetdir. Bunday sujetni o‘ylab topish uchun ijodkor bolalarcha beg‘ubor olamga xos keng tasavvurga ega bo‘lishi, xayolotni ishga solishi zarur.

“Quddus Muhammadiy hajviyoti, – deb yozadi O.Safarov, – dastavval, bolalar hayotining barcha jahbalarini qamrab olganligi, bolalarning yosh xususiyatlari va ruhiyatiga mosligi bilan xarakterlidir. Va ayni choqda shoir tanqidiga uchragan hodisalarning hayot mantig‘iga, aniqrog‘i, hayot dialektikasiga muvofiqligi ham e’tirofga loyiq. Zero, shoir – o‘ta mushohadakor”²⁶.

² Quddus Muhammadiy. Ahmadjonning kitobxonligi. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/quddus-muhammadiy/>

²⁶ Сафаров О. Шеърим – очил дастурхон. – Т.: “Мусиқа”, 2011. – В. 23.

²⁷ Quddus Muhammadiy. Ahmadjonning kitobxonligi. <https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/quddus-muhammadiy/>

Darhaqiqat, shoir “Ahmadjonning ukoldan qo‘rqishi” she’rida ingichka ninachadan qo‘rqib, butun sinfga kulgi bo‘lgan qo‘rqqoq bolalar obrazini tasvirlaydi:

– Opa, juda qo‘rqyapman,
Bu gal katta ninangiz,
Jon opa, tuzaldim-ku,
Ukol qiling ninasiz²⁷.

Umuman, bu kabi mavzu va sujetlar o‘sha davr bolalar she’riyatining asosiy xususiyati hisoblanadi, desak, xato bo‘lmaydi.

Shukur Sa’dulla poetik ijodiga xos bo‘lgan “Olim uyaldi”, “Bizning oyna”, “Ivirsiq”, “Anqov”, “Shalabbo”, “Injiq qizcha”, “Jumboq” kabi humoristik she’rlar ham yengil kulgi uyg‘otishga moyil. Shoир ayrim bolalar fe’l-atvoridagi noshudlik, injiqlik, surbetlik, dangasalik, anqovlik kabi illatlardan kuladi.

Bu jihat rus bolalar adabiyotining taniqli vakillari K.Chukovskiy, S.Marshakning humoristik she’rlarida ham kuzatiladi. K.Chukovskiy “Moydodir” (“Yuvin, do‘mbog‘im”) she’ri uchun bolaning irkitligidan jirkangan narsalarning to‘rt tomonga “qochishi” manzarasini asos qilib, o‘ziga xos poetik manzara yaratgan bo‘lsa, S.Marshak noshud, qo‘lidan ish kelmaydigan bolalar obrazini humoristik tasvirlash uchun o‘ziga xos sujet yaratadi. Shoирning “Ustabuzarmon”²⁸ humoristik she’ri ham shunday qiziqarli sujetga ega:

Shogirdlikka xushim yo‘q,
O‘zim tayyor ustaman.
Xom-xatala ishim yo‘q,
Ko‘zim pishgan, puxtaman.
Mayda-chuyda yumushga
Vaqtimni ketkazmayman.
Oshxonada qo‘yishga
Katta bufet yasayman.

²⁸ Маршак Самуил. Мастер-ломастер. <https://www.poetry.monster/ru>

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adizova N. Qiziqmachoqlarning janriy tabiatini va badiiyati. ff.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – 50 b.
2. Quddus Muhammadiy. Ahmadjonning kitobxonligi.
<https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/quddus-muhammadiy/>
3. Saфаров О. Шеърим – очил дастурхон. – Т.: “Мусика”, 2011. – В. 23.
4. Quddus Muhammadiy. Ahmadjonning kitobxonligi.
<https://ziyouz.uz/ozbek-sheriyati/ozbek-zamonaviy-sheriyati/quddus-muhammadiy/>
5. Маршак Самуил. Мастер-ломастер. <https://www.poetry.monster/ru>